

**KREDIT SHARTNOMALARI BILAN BOG‘LIQ NIZOLAR BO‘YICHA
FUQAROLIK ISHLARI BO‘YICHA SUD HAL QILUV QARORLARI VA
ULARNI IJRO ETISH BILAN BOG‘LIQ MASALALAR**

ТДЮУ tayanch doktoranti M.Murodov

Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan nizolar fuqarolik sudlarida eng ko‘p uchraydigan iqtisodiy mazmundagi nizolar sirasiga kiradi. Ushbu toifadagi ishlarning asosiy qismini kredit qarzdorligini undirish, foizlar va penya hisoblash, garov predmetiga undiruv qaratish, kredit shartnomasini haqiqiy emas deb topish hamda kafillik majburiyatlaridan kelib chiqadigan nizolar tashkil etadi.

Sud amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur nizolarni ko‘rib chiqishda shartnoma erkinligi, taraflarning tengligi, majburiyatlarni lozim darajada bajarish va halollik tamoyillariga rioya etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, sud hal qiluv qarorlarini ijro etish bosqichida qarzdorning mol-mulki yetarli emasligi, yashirilgan aktivlar mavjudligi, garov obyekti qiymatining pasayishi yoki ijro hujjatlarining uzoq muddat bajarilmay qolishi kabi muammolar uchramoqda.

Fuqarolik sudning hal qiluv qarori – bu sud ishini mazmunan hal qilishga qaratilgan sud hujjati. Sudning hal qiluv qarori fuqarolik protsessi ishtirokchilarining qonun bilan himoyalangan subyektiv huquq va manfaatlarini bevosita himoya qilishga qaratilgan. M.K. Treushnikovning fikricha, sud o‘z hal qiluv qarori bilan da’vogarning javobgar tomonidan buzilgan huquqlarini tiklaydi yoki bunday buzilish sodir bo‘lmaganligini tan oladi, da’vogarning da’volarini rad etish orqali javobgarning huquqlarini himoya qiladi¹.

Albatta birinchi instansiya sudi da’vogarning da’vo talabini qanoatlantirishi yoki qanotalantrishni rad qilish mumkin. Bu esa fuqarolik yoki iqtisodiy sudning hal qiluv qarorida o‘z aksini topadi.

A.A.Solovyovning fikriga ko‘ra, muayyan sud hujjatini qabul qilish orqali huquqiy noaniqlik bartaraf etiladi, bu esa tegishli subyektning huquqlari, erkinliklari va qonun bilan himoyalangan manfaatlarini o‘z vaqtida himoya qilishga yordam beradi².

Har qanday hal qiluv qarori fuqarolik munosabatlarda yuzaga keladigan nizolarni hal qilishga qaratilgan bo‘ladi.

K.S.Yudelsonning yozishicha, sudning hal qiluv qarorlari protsessual qonun bilan belgilangan, himoyalangan huquq va manfaatlarni himoya qilishga, shuningdek,

¹ Гражданский процесс: учебник/под ред. М.К. Треушникова. - М.: Городец, 2012. - 816 с.

² Соловьев А. А., Шейфетдинова Н. А. Принцип исполнимости судебного решения // Мировой судья. 2017. № 1. С. 36–40

adolatni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan barcha boshqa nizolarni hal qilishga qaratilgan sud organlarining irodasini ifodalash shakli sanaladi³.

Fuqarolik sudlarda fuqarolik ishi mazmunan ko'rib chiqilgandan so'ng hal qiluv qarori qabul qilinadi.

M.A.Rojkova sud hujjatini faqat huquqni muhofaza qilish xususiyatiga ega hujjat deb hisoblaydi va uni sud organi tomonidan maxsus belgilangan protsessual tartibda qabul qilingan, sudning tezkor xulosasini o'z ichiga olgan hujjat deb ta'rif beradi.

Ushbu hujjat bir qator rasmiy talablarga javob berishi va huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan muayyan oqibatlarni keltirib chiqaradigan moddiy huquqning huquqiy faktini o'z ichiga olishi kerak⁴.

Sud hal qiluv qarorining asosiy vazifasi nafaqat mulk huquqi masalalarida taraflar o'rtasida huquqiy munosabatlarni o'rnatish va tasdiqlash (ularning mavjudligi yoki yo'qligini tasdiqlash), balki sud jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan munosabatlarni huquqiy jihatlarni aniqlashtirishdan iborat. Bu himoya qilinishi qonun bilan talab qilinadigan huquqlar va qonuniy manfaatlarni to'sqinliksiz amalga oshirish uchun sharoit yaratadi, mavjud huquqiy munosabatlardagi o'zgarishlarga ta'sir qiladi, nizolarni hal qiladi hamda taraflarning huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydi.

Sud hujjatini qabul qilish orqali sud hokimiyati fuqarolik muomalasining normal, ijobiy rivojlanishiga ham yordam beradi.

Kredit shartnomasi bo'yicha ma'lum miqdordagi pulni yoki biror miqdordagi tovarlarni qaytarishga majburmi yoki yo'qligini hal qilishda sud quyidagilarni aniqlashi kerak: mazkur shartnoma mavjudmi, shartnoma predmeti, pul yoki tovarlarning qarz oluvchiga amalda o'tkazilishi (o'tkazilish vaqti), taraflar tomonidan foizlar va majburiyatni bajarish shartlari, foizlar va kreditni to'liq yoki qisman amalda qaytarish sanalari, foizlarni qaytarish tartibiga rioya qilinishi, qarzdor yoki kreditor tomonidan kechikish mavjudligi, shartnoma bo'yicha majburiyatlarni buzish oqibatlari va buzuvchining javobgarligi, ushbu javobgarlikning turi va hajmi. Albatta mazkur ma'lumotlar sudning hal qiluv qarorida ham o'z aksini topishi kerak bo'ladi.

Shuningdek, kredit shartnomasi bilan bog'liq sud ishlari bo'yicha hal qiluv qarorida kreditor tomonidan to'lanishi kerak bo'lgan summalarni undirish uchun qilingan xarajatlar (masalan, pochta xarajatlari, davlat bojlari, qarzdorni topish xarajatlari va boshqalar) am ko'rsatishi lozim.

FPKning 257-moddasida pul mablag'larini undirish to'g'risidagi hal qiluv qarorining xususiyatlari yoritib berilgan: sud pul mablag'larini undirish to'g'risidagi hal qiluv

³ Сахнова Т.В. Курс гражданского процесса. 2-е изд. М., 2014. С. 506, 507.

⁴ Рожкова М.А. Судебный акт и динамика обязательства. М., 2003. С. 11.

qarorida undirilishi lozim bo'lgan pul summalarini undirish davrini, asosiy qarzning, zararlarning, neustoykaning hamda foizlarning umumiy miqdorini alohida-alohida aniqlagan holda ko'rsatadi.

Tashkilotlardan pul mablag'lari undirilgan taqdirda hal qiluv qarorida undiriladigan mablag'larning xususiyati, shuningdek undirib beriladigan summa javobgarning bankdagi qaysi hisobvarag'idan hisobdan chiqarilishi kerakligi ko'rsatiladi.

Sud dastlabki va qarshi da'volarni to'liq yoki qisman qanoatlantirgan taqdirda hal qiluv qarorida o'zaro hisobga olish natijasida undirilishi lozim bo'lgan summani ko'rsatadi⁵.

Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan nizolarni adolatli hal etish va sud hal qiluv qarorlarining o'z vaqtida hamda to'liq ijro etilishi moliyaviy tizim barqarorligini, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqiy himoyasini ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Shu bois sud amaliyotini bixillashtirish, majburiy ijro tizimini raqamlashtirish, qarzdorning mol-mulkini aniqlash va qidirish bo'yicha elektron davlat reyestrlari bilan Majburiy ijro byurosining integratsiyasini kengaytirish, kredit nizolari bo'yicha elektron hujjat almashinuvi va masofaviy sud majlislarini kengaytirish, sud qarorlarini ijro etish bosqichlarini onlayn kuzatish imkoniyatlarini yaratish, banklar, sudlar va majburiy ijro organlari o'rtasida ma'lumot almashishning yagona elektron platformasini joriy etish, mediatsiya va muzokara mexanizmlarini keng qo'llash hamda kreditor va qarzdor manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish mazkur sohadagi nizolar sonini kamaytirish va sud qarorlari ijrosi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гражданский процесс: учебник/под ред. М.К. Треушникова. - М.: Городец, 2012. - 816 с.
2. Соловьев А. А., Шеяфетдинова Н. А. Принцип исполнимости судебного решения // Мировой судья. 2017. № 1. С. 36–40
3. Сахнова Т.В. Курс гражданского процесса. 2-е изд. М., 2014. С. 506, 507.
4. Рожкова М.А. Судебный акт и динамика обязательства. М., 2003. С. 11.

⁵ <https://lex.uz/docs/-3517337>